

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI SHAXSINING SHAKLLANISHI**

***Mubdi’mma G‘ulomjonova***

***FarDU talabasi***

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsining qaytarzda shakllanishi hamda bu jarayonga ularing yosh va psixologik xususiyatlarining ta’siri to‘g‘risida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, tarbiya, psixologik xususiyat, o‘quv faoliyati, mehnat faoliyati,

Kun sayin rivojlanib borayotgan ta’lim tizimining yanada yaxshilanishi, taraqqiyetishi uchun ilk qadam, albatta, poydevor vazifasini o‘tab kelayotgan kichik ta’lim dargohlaridan boshlanishi barchamizga ma’lum. Shu sababli yosh avlodni vatanzarvarlik ruhida tarbiyalash, ularda insoniylik tuyg‘usini shakllantirish singari bir qator masalalar tobora dolzarb mavzuga aylanmoqda. Maktab ostonasiga endigina qadam qo‘ygan har bir o‘quvchi yangi ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo‘shiladi. U yangi faoliyat natijasida unga yaxshi muomala va xarakter shart va burchi ekanligini, belgilab qo‘yilgan qoida va talablar bajarilishi shartligini anglaydi. O‘zini o‘quvchidek his qilish bilan birga unda yaxshi o‘quvchi bo‘lishga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’limda o‘quv faoliyati asosiy o‘rinda turishiga qaramay, tarbiyaviy vazifalar ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Chunki ta’lim va tarbiya o‘zaro uyg‘un tushunchalardir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsining shakllanishida ularning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish samarali natija beradi.

Kichik maktab yoshidagi bola:

- ma’lum darajada o‘z faoliyatini mustaqil rivojlantira oladi;
- o‘z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishni so‘z bilan ifodalab bera oladi;
- rejallashtirish so‘zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi;
- o‘z diqqatlarini aqliy masalalarga qarata oladi.

O‘quv faoliyatida:

- bu faoliyat boladan berilgan o‘quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi;
- o‘qituvchi nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko‘rsatmalar beradi;
- o‘quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi;
- tushunib olishga harakat qiladi;
- ixtiyorsiz xotira ustunlik qiladi.

O‘quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti, asosan, uning ishga bo‘lgan qiziqishi orqali belgilanadi. Bu yoshdagi o‘quvchilar o‘z xayollari hamda tasavvurlariga tayangan holda qiziqarli ertak va hikoyalarni o‘zlari mustaqil ravishda

to‘qiy oladilar. Ularning tasavvuri juda keng va xilma-xil bo‘ladi. Ayrim o‘quvchilar real borliqni tasavvur etsalar, boshqalari fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar. Shunga ko‘ra kichik maktab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar, odatda, o‘zlariga ma’lum syujetlardan foydalangan holda yangi obrazlarni yaratadilar. Ko‘plab multfilmlar ana shunday bolalarning tasavvurlari asosida yaratilgan. Turli tasavvurlar negizida ularning qo‘rquvni yengishi, do‘s topishi, xursandchilik hislari yotadi. Qolaversa, tasavvur terapevtik natijaga olib keluvchi faoliyat sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Bola hayotda qiyinchiliklarga duch kelib, ulardan chiqib keta olmagan holathlarida ham ko‘pincha xayolga beriladi. Misol uchun, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bola o‘zining hamma havas qiladigan oilasi, uyi bo‘lishini tasavvur qiladi. Bolalar hayotida kattalarga nisbatan bo‘lgan tasavvurning ham ahamiyati juda katta. Bola tasavvur orqali atrof-muhitni chuqurroq bila boshlaydi, ijodiy layoqati rivojlanadi, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Maktabning birinchi sinfiga kelgan bolada xayol yetarli darajada rivojlangan, va u xilma-xil tasavvurlarning kattagina zaxirasiga ega bo‘ladi. O‘qish jarayonida u faqat idrok va xotira tasavvurlariga tayanib qolmasdan, balki xayolida yaratilgan tasavvurlarga ham tayanadi. Bolaning xayoli tevarak-atrof taassurotlari, tasviriy san’at asarlarini yetarli darajada aks ettirish jarayonida vujudga keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘ynaydigan o‘yinlarda ham ularning xayoli o‘sishda davom etadi. O‘quvchilar o‘yinlarida turli-tuman narsalar yasaydilar, turli yerlarga sayohat qiladilar. Bunday o‘yinlar natijasida o‘quvchida turli tasavvurlar hosil bo‘ladi, uning ijodiy, qurish-yasash va badiiy qobiliyatları o‘sadi. O‘quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji hamda shaxsining shakllanishida ijobiy asos bo‘ladi. Buning natijasida bolaning oilasi, o‘qiyotgan sinfi va boshqa jamoalardagi o‘z o‘rnini anglay boshlashini ko‘rish mumkin. Boshlang‘ich sinfdan boshlab o‘quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga amaliy va psixologik jihatdan tayyorlashga e’tibor qaratiladi. Bu davr ichida bolalarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lish asoslari tarkib topishni boshlaydi. Ularda mehnatga nisbatan havas uyg‘onadi, mehnatga va mehnat ahllariga hurmat bilan qarash, ijtimoiy foydali ishlarda qatnashishga intilish singari fazilatlar ham tarkib topadi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda mehnatsevarlik, asosan, o‘qish va mehnat jarayonida rivojlanadi va mustahkamlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nazarova. M. (2021). BOSHLANG’ICH TA’LIM O’QUVCHILARINING PSIXIK TARAQQIYOTIDA INTEGRATSIYAVIY-INNOVATSION YONDASHUVLAR AHAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (Buxdu. uz), 7(7). 3. N
2. Internet saytlari.